

O'ZBEK MA'RIFATCHILIGI RIVOJIDA JADIDLARNING O'RNI

Jalilova Sevinch Muhiddin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika inistituti

2-boshich tarix mutaxassisligi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15284306>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakati konseptual tahlilga tortiladi. Jadid ma'rifatparvarlari publitsistikasida ularning Turkistonda ijtimoiy vokelikni yangilash uchun kurashi, ayniqsa, yaqqol o'z aksini topgan bo'lib, mazkur makolada jadidlar publitsistikasiga alohida e'tibor qaratiladi. Zero, Markaziy Osiyodagi ma'rifatparvarlik harakatining butun tarixi publitsistikasiz o'z mazmunini yo'qotgan bo'lur edi.

Kalit so'zlari: jadidchilik; madaniyat; publitsistika; intellektual va ma'naviy mavjudlik, estetik xarakteristika; ma'naviy hayot, mafkura; ma'rifiy konsepsiya; tarbiya.

МЕСТО ДЖАДИДОВ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ

Аннотация. В статье джадидское движение в Центральной Азии подвергается концептуальному анализу. Особое внимание уделяется движению джадидов-просветителей, где ярче всего отразилась борьба джадидов за обновление социальной действительности в Туркестане. Без их публицистики была бы непонятой вся история просветительского движения в Централь ной Азии.

Ключевые слова: джадидизм; культура, публицистика; интеллектуальное и духов-ное явление; эстетическая характеристика; духовная жизнь; идеология, просветительская концепция; воспитание.

THE ROLE OF JADIDS IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK ENLIGHTENMENT

Abstract. In this article, the Jadid movement in Central Asia is subjected to a conceptual analysis.. Special attention is paid to the movement of the Jadid enlighteners, where the struggle of the Jadids for the renewal of social reality in Turkestan was most vividly reflected. And as well, without journalism, the entire history of the educational movement in Central Asia would not be under- stood.

Keywords: jadidism; culture; journalism; intellectual and spiritual phenomenon; aesthetic characteristics; spiritual life; ideology; educational concept; education.

Shavkat Mirziyoev: “Jadidlar g'oyasi — Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang”

Jadidlar g'oyasi — Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang.

Bu haqda Shavkat Mirziyoev 2023 yil 22 dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida aytib o'tdi. "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur", "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir", — dedi prezident.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklar madaniyatida intellektual va ma'naviy hodisa bo'lgan jadidchilik hozirgi davrda alohida va maxsus tarixiy-madaniy, falsafiy-axloqiy va konseptual karakteristika talab etadi. Sho'rolar davlati tarixchilari, faylasuflari, adabiyotshunoslari jadidchilikni reaksiyona ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida baholadilar. Taniqli davlat arbobi, olim, akademik B. G'. G'afurov o'zining "Tojik xalqi tarixi" ("История Таджикского народа") nomli asarining dastlabki ruscha nashrida (Москва: "Наука, 1949), mazkur asarga atoqli sharqshunos olim I. S. Braginskiy mas'ul muharrirlik qilgan, shunday yozadi: "jadidchilik hech qachon mutaraqqiy harakterga ega bo'lmagan, u hech qachon milliy-ozodlik harakati tusini olmagan. Jadidchilik Markaziy Osiyoda xalqqa qarshi, burjua-millatchi, aksilinkilobiy harakat bo'lgan.

Diniy fanatizm tuyg'ularini qo'zg'atib, bir millat mehnatkashlarini boshqasiga qarshi gijgijlab, jadidlar ushbu millatlarning va buyuk rus xalqining umumiy zolimlarga qarshi birgalikdagi inkilobiy kurashiga ulkan ziyon etkazdilar". I. S. Braginskiy o'zining Sadridin Ayniyning ijodi tahliliga bag'ishlangan "Из истории персидско-таджикской литературы" asarida yozadiki: "Ayniy o'shanda jiddiy xatolikka yo'l qo'ydi: o'zning ma'rifatparvarlik faoliyatini u jadidchilik harakti bilan bog'ladi". Jadidchilik va jadidlar masalasida akademik Z. Sh. Radjabov ham yanada keskinroq fikr bildiradi. O'zbekiston olimlari jadidchilik harakatini yagona va yaxlit harakat sifatida qarab, ularning ijodini jadidlar yashagan o'sha real tarixiy voqelik bilan chambarchas bog'ladilar.

Arab, Eron va Turk dunyosida ma'rifatparvarlik qanday vazifani bajargan bo'lsa, Markaziy Osiyoda jadidchilik ham mohiyatan aynan shunday tarixiy vazifani bajardi. Misrda, Turkiyada, Eronda, Hindistonda qudratli ma'rifatparvarlik harakati shakllandiki, bu Markaziy Osiyo shaharlaridagi jadidchilik harakatiga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning Misrda, Abdurauf Fitratning Turkiya, Eron va Rossiyada, Mirza Sirojning Evropada va boshqa yerlarda bo'lishi jadidlarning intellektual va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ko'maklashdi.

Jadidlar Markaziy Osiyoda hayotning barcha jabhalarida o'zgarishlar uchun yetilgan ijtimoiy ehtiyojni o'tkir his eta boshladilar. Zero, jadidlar tomonidan ko'tarilgan masalalar Markaziy Osiyoda hayotning barcha sohalariga daxl qilganligi bejiz emas. Ular O'rta asr ijtimoiy munosabatlarini qoralab chiqdilar, ijtimoiy taraqqiyot va insonlar hayotini sivilizatsiya me'yorlariga mos ravishda yangilash g'oyalarini targ'ib qildilar. Yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash muammolari jadidlar dasturida ustuvor o'rin egalladi. Ular ta'lim tizimini isloh qilishga intildilar, o'qitishning yevropacha shakldagi yangi usullariga ega yangi maktablarning tashabbuskori va tashkilotchilari sifatida bo'y ko'rsatdilar. O'zlari darsliklar yozdilar, ta'lim dasturlarini tuzdilar, madaniy-ma'rifiy muassasalar tarmog'ini yaratdilar, turk va fors tillarida gazeta, jurnal, kitoblar chop etdilar va tarqatdilar. Agar jadidlar faoliyatiga ijtimoiy va gumanitar nuqtai nazardan yondashilsa, ularning faoliyati yaxlit holda ma'rifatparvarlik xarakteriga ega ekanligini qayd qilish mumkin.

Jadidlar, jumladan, Ahmad Donish juda katta qalb iztirobi bilan o'z o'lkalarining qoloqligi hamda hokimiyat vakillari tomonidan jamiyat bosh-qaruvining mustabid (zulmkor) xarakteri xususida yoza boshladilar, hokimiyatning jabr-zulmi va o'zboshimchaligini, ruhoniylarning munofiqligi va mutaassibligini, sudxo'rlarning ochko'zligini tanqid ostiga oldilar.

Jadidlar chukur idrok etgan holda o'z o'lkalarining mustaqilligi, xalqlarning ozodligi, til va madaniyat ravnaqi va boshka masalalarni keskin kun tartibiga qo'ydilar.

Markaziy Osiyoda jadidchilikning vujudga kelishi va shakllanishiga tashqi ta'sirlar xususida gap ketganda, qayd etish joizki, odatda, sho'rolar davrida tadqiqotchilar rus ijtimoiy fikrining ta'sirini bo'rttirib ko'rsatdilar, aniqrog'i mutlaqlashtirdilar, shuningdek, turk, tatar xamda eron, afg'on, arab va hind ma'rifatparvarlarining ta'siriga etarlicha urg'u bermadilar.

Ma'lumki, XX asr boshlarida Hindiston, Misr va Turkiyada chop etilgan forsiy matbuot Markaziy Osiyoning Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng yoydi. Tabiiyki, o'z davrining ilg'or va eng o'qimishli kishilari sifatida jadidlar ushbu hodisadan chetda qolmadilar. Ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'zlashtirar ekan, jadidlar Buxoro va Turkiston voqeligini ushbu yo'l orqali izohladilar va ularga o'z xalqlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga muvofiq milliy va mintaqaviy tus baxsh etdilar.

Jadidchilik yuzaga kelishi bilan ijtimoiy fikr masalasi keskin o'zgardi, uning yo'nalishi yanada haqqoniy, hayotiy harakter kasb etdi. Ushbu yangi tartiblar jamiyatni yangilash bilan bog'liq muammolarga daxl qildi, Buxoro amirligining o'rta asr dunyosidan evropacha turmush tarzi va fikrlashga o'tishiga ko'maklashish maqsadini ko'zladi.

Markaziy Osiyoda jadidchilikning shakllanishiga, Ahmad Donishdan tashqari, ilgariroq Volgabo'yi, Krim va Kavkazning turk, tatar xalqlari orasida, xususan, Ozarboyjonda shakllangan ma'rifatparvarlik harakati shubhasiz katta ta'sir ko'rsatdi.

Turkiy mintaqalarda chop etilgan gazeta va jurnallar, publitsistik maqolalar, ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi jurnallar Markaziy Osiyo shaharlarida keng tarqaldi. Yosh turklar inqilobidan so'ng Turkiyaning Turkiston va Buxoro amirligiga g'oyaviy ta'siri keskin ortdi. Tatar va turk tillaridagi nashrlar Markaziy Osiyoda jadidchilikning shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi.

Bizning barcha jadidlarimiz, ham birinchi, ham ikkinchi avlod (Yosh buxoroliklar orasidan bolsheviklar partiyasi saflariga kirgan ayrim vakillarni hisobga olmaganda), mustaxkam e'tiqodli musulmon bo'lgan holda, ularning tarixiy davri dunyoqarash muhitini belgilab bergan islom ma'naviy qolipi doirasida umrguzaronlik va ijod qildilar. Islom dini esa ularga nafaqat turmush tarzi, balki tafakkur tarzini ham amr etgan mazkur holatda har qanday vaziyatdan, shu jumladan, jamiyatning yuqorida qayd qilingan tarixiy inqirozidan chikish yo'llarini izlashda ham ma'naviy yo'riqnoma sifatida xizmat qilgan.

Abdurauf Fitrat hatto "Najot yo'li" degan kitob ham yozgan, unda o'z salafлари va zamondoshlarining barcha ijtimoiy muvaffaqiyatsizliklarini ularning islom asoslarini yetarlicha bilmasliklarida ko'rgan. Vaholanki, o'sha davr musulmon Sharkining, qolversa hozirgi davrda ham, tarixiy tanazzulining asosiy ma'naviy sababi islom dini muqaddas manbalari ko'rsatmalarining dogmatik talqinida edi. "Jadid" tushunchasi etimologik jihatdan arabchadan kelib chiqqan va u "yangi" ma'nosini anglatadi. Ushbu tushuncha ta'lim faoliyatiga nisbatan o'qitishning yangicha usuli sifatida tatbiq etildi. Ammo bora-bora Markaziy Osiyoda ma'rifatparvarlik harakati kengaya borishi jarayonida "jadid" yoki "jadidchilik" tushunchasi anchayin keng ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy mohiyat kasb eta bordi. Shunday keng ma'noda jadidchilik ijtimoiy fikrdagi ma'rifatparvarlik oqimini hamda Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy sistema islohotlari tarafdorlari g'oyalarini anglatdi, biroq siyosiy partiyaga aylanmadi.

Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan "jadidchilik" tushunchasi insonlar ma'naviy hayotining barcha shakllarini o'zgartirish usuli sifatida qo'llanildi.

Albatta, jadidchilik bo'sh zaminda vujudga kelgani yo'q, yuqorida aytib o'tganimizdek, uning Markaziy Osiyoda paydo bo'lishiga, Axmad Donish va Ismoilbek Gasprinskiyning ta'siri bilan birga, muayyan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy dunyoqarashga asoslangan shart-sharoit yuzaga kelgan edi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, jadidlar - istiqloл kurashining g'oyaviy ilhomchilari edilar. O'zbekiston mustaqilligining tiklanishi tasodifiy va favquloddagi hodisa bo'lmay, vatan uchun kurash ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Millatimiz fidoyilari bo'lmish, vatanparvarlik harakatlari bilan jadid ziyolilari orzu qilgan istiqloлга, hur va ozod vatanimiz O'zbekistonga erishdik.

Lekin mening fikrimcha odamlar o'zgaryapti hozir ortiqcha to'y, tomoshaga pul sovurgandan ko'ra kelajak avlodni ta'lim sifatiga etibor berish kerak deb o'ylayman aynan jadidlar shunaqa fikrda edi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1915 yil oyna jurnalida Bizni yemirguvchi illatlar maqolasini chop etgandi, undagi ushbu jumla menga chuqur ta'sir qildi: "Bu millatni yeb bittiradigani to'y va marosimi" degan jumla bugungi kunga ham to'g'ri keladi. Qarzga katta to'y qilib xorijga mardikorlikka ketgandan ko'ra o'qish, izlanish kerak va o'ylaymanki bu o'z samarasini berdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati o'zbek ma'rifatchiligi taraqqiyotida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Jadidlar xalqni johillik va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan, texnika va madaniyat yutuqlarini o'zlashtirish g'oyasini ilgari surib, bu yo'lda maktab ta'limini isloh qilish, yangi usuldagi maktablar ochish, darsliklar yaratish va matbuot rivojiga hissa qo'shdilar. Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadidlar millat kelajagini faqat ilm-ma'rifat bilan bog'lashgan va bu yo'lda ko'plab ibratli ishlarni amalga oshirganlar. Ular faqat o'qituvchi yoki yozuvchi emas, balki jamiyatning ongini o'zgartirishga intilgan buyuk islohotchilar edilar. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimi va madaniy hayotining shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi. Bugungi kunda ularning g'oyalari nafaqat tarixiy, balki dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodni tarbiyalashda, milliy o'zlikni anglashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. <https://daryo.uz/k/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang>
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/>
3. Braginskiy I.S. Iz istorii persidsko-tadjikskoy literatury. M.: Nauka, 1972. 524 s.
4. Muxametshin R.M. Tatarı i islam v XX veke. Kazan: Izdatelstvo «Fen», 2003. 303 s.
5. Radjabov Z. SH. Iz Istorii obshchestvenno-politicheskoy mysli tadjikskogo naroda vo vtoroy polovine XIX i nachale XX vv. Dushanbe, 1957. — 459 s.
6. Turson A. "V jizni ya delal vsyo, chto mechtal by ne delat..." // Iran-name. 2017, №1-2 (41-42). S. 19-58.